

“Intellektual mulk markazi”
davlat muassasasi direktorining
2023-yil 10-yanvardagi
—um-son buyrug‘iga
1-ilova

**“Intellektual mulk markazi” davlat muassasasi huzuridagi
Ilmiy-texnik kengash
NIZOMI**

1-bob. Umumiy qoidalar.

1. Ushbu Nizom “Intellektual mulk markazi” davlat muassasasi (keyingi o‘rinlarda – Markaz) huzuridagi Ilmiy-texnik kengash (keyingi o‘rinlarda– Kengash) faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.
2. Kengash intellektual mulk sohasidagi faoliyatni rivojlantirish va takomillashtirish muammolari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda, intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasi sohasida uslubiy yordam ko‘rsatishda maslahat beruvchi organ hisoblanadi.
3. Kengash o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, adliya vazirining buyruqlari va ushbu Nizomga amal qiladi.
4. Kengash o‘z ishini Markaz bo‘linmalari, Adliya vazirligi, manfaatdor tashkilotlar, yetakchi olimlar, mutaxassislar va patent vakillari bilan hamkorlikda olib boradi.

2-bob. Kengashning asosiy vazifalari va funksiyalari.

5. Kengashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:
Intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasi sohasidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligini takomillashtirish, shuningdek mazkur qonunchilikni qo‘llash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar, tavsiyalar va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish bo‘yicha takliflar berish, ularni ko‘rib chiqish va tegishli xulosalar tayyorlash;
Markazning ilmiy faoliyatiga doir yo‘nalishlarni tanlash va ilmiy rejalarini shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
intellektual mulk obyektlariga huquqiy muhofaza taqdim etish ishini va patent-axborot ta’mnotinini rivojlantirish va takomillashtirish, O‘zbekiston Respublikasida ilmiy-texnika, badiiy-konstrukturlik va boshqa ijodkorlikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish uchun yordam berishga qaratilgan ishlar va tadqiqotlarni bajarish

va natijalarini ko‘rib chiqish, shuningdek intellektual mulk obyektlariga oid loyihalarni ko‘rib chiqish;

Markazning ilmiy xodimlari va mutaxassislarini tanlash, joy-joyiga qo‘yish va malakasini oshirishni yaxshilashga doir tavsiyalar ishlab chiqish.

6. Kengash o‘zining asosiy vazafalariga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Markaz bo‘linmalari va Adliya vazirligi tomonidan tayyorlangan intellektual mulk sohasidagi normativ-huquqiy hujatlarni takomillashtirishga doir takliflarni ko‘rib chiqadi va ushbu takliflar bo‘yicha o‘z xulosalarini taqdim etadi;

intellektual mulk sohasida xalqaro hamkorlik masalalarini ko‘rib chiqadi, bunday hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan takliflarning ishlab chiqilishini ta’minlaydi;

Markaz ilmiy faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini, shu jumladan davlat ekspertizasi jarayonlarini hamda patent bojlari hisobi va nazoratini olib borish tizimini kompleks avtomillashtirish ishlarini, axborot ta’minoti tizimini rivojlantirish va takomillashtirish bilan bog‘liq yo‘nalishlarni o‘rganib chiqadi va zarur tavsiyalarni ishlab chiqadi;

Markaz bo‘linmalari va Adliya vazirligining takliflarini, ularni intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasi masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar rejasiga kiritish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqadi va baholaydi;

Markaz faoliyatini takomillashtirish rejasining bajarilishini, shuningdek reja bajarilishiga doir hisobotlarni muhokama qilishda qatnashadi;

intellektual mulk va uning huquqiy muhofazasi hamda patent bilimlarining roli va ahamiyatini targ‘ib qilish ishini takomillashtirish;

O‘zbekiston Respublikasida ilmiy-texnika va badiiy-konstrukturlik ijodkorlikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan takliflarni ko‘rib chiqadi;

Markazning ilmiy xodimlari va mutaxassislarining malakasini oshirish masalalari bo‘yicha takliflarni ko‘rib chiqadi.

3-bob. Kengash tarkibi.

7. Kengash ilmiy va ekspert xodimlardan, yetakchi olimlar, davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlarning yuqori malakali mutaxassislaridan iborat tarkibda shakllantiriladi.

8. Kengash ishini Markaz direktori boshqaradi va u Kengash raisi hisoblanadi, Markaz direktori Kengash raisining o‘rinbosari va mas’ul kotibini tayinlaydi.

9. Kengash tarkibi Markaz direktori tomonidan tasdiqlanadi.

10. Kengash a'zolari Kengash ishida jamoaviy asosda qatnashadi.

**4-bob. Kengash faoliyatining tashkil qilinishi,
tavsiyalarning qabul qilinishi va amalga oshirilishi.**

11. Kengash majlislarining mavzulari va o'tkazilish muddatlari Markaz direktori tomonidan tasdiqlanadigan Kengash ishining kalendar-mavzu ish rejasiga asosida belgilanadi.

Tasdiqlangan ish rejasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi takliflar Kengash a'zolari tomonidan ko'rib chiqiladi va Kengash raisi tomonidan tasdiqlanadi.

12. Kengash majlislari yilning har choragida bir marta o'tkaziladi. Kengash raisining qaroriga binoan navbatdan tashqari majlislari o'tkazilishi mumkin.

Kengash seksiyalarining majlislari ularning ish rejalariga muvofiq o'tkaziladi.

13. Muvaqqat ishchi guruhlarning ish tartibi ularning raislari tomonidan masalaning murakkablik darajasidan va takliflar tayyorlashning belgilangan muddatlaridan kelib chiqib belgilanadi.

14. Majlislarga zarur materiallarning tayyorlanishi ularning tayyorlanishi uchun mas'ul Markaz xodimlari tomonidan ish rejasiga muvofiq ta'minlanadi.

a) Materiallar quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- ma'ruza matni (ma'ruzalarning kengaytirilgan tezislari) yoki muhokamaga olib chiqilayotgan normativ va metodik hujjatlarning loyihalari;

- retsenziyalar, xulosalar, taqrizlar (zarur holatlarda);

- ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha qaror loyihalari.

b) Materiallar Kengashga masalani ko'rib chiqish bo'yicha belgilangan muddatdan ikki hafta oldin taqdim etiladi.

15. Muhokama qilinayotgan masalalar bo'yicha Kengash qarorlari ko'pchilik ovoz bilan, zaruratga ko'ra yashirin ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi.

Kengash majlislari va qarorlarining bayonnomalari besh kunlik muddatda rasmiylashtiriladi.

Qarorlar Markazning hamma manfaatdor bo'linmalariga ularning amaliy faoliyatlarida foydalanishlari uchun yuboriladi.

Kengashning Markaz faoliyatiga tegishli qarorlari zarur holatlarda Markaz direktorining buyruqlari yoki farmoyishlari bilan hayotga tatbiq qilinadi.

16. Kengash raisi:

mazkur Nizomga muvofiq Kengash faoliyati ustidan operativ rahbarlikning olib borilishini;

Kengash ishining kalendar-mavzu rejasiga takliflar tayyorlanishi;

Kengash hisobot yilidan keyingi yilning 20-yanvariga qadar ish rejasi loyihalarining shakllantirilishi va taqdim etilishi, ularning bajarilishi ustidan nazorat olib borilishini ta'minlaydi.

17. Kengash raisining o'rribbosari:

mazkur Nizomga muvofiq Kengash seksiyalari faoliyatining nazoratini, Kengashning kalendar-mavzu ish rejasining shakllantirilishi va uning bajaralishi ustidan nazoratni;

Kengash raisiga hisobot yilidan keyingi yilning 15-yanvariga qadar Kengash ishi bo'yicha yillik hisobotning taqdim etilishini;

Kengash vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha yozishmalar olib borilishini ta'minlaydi.

18. Kengashning mas'ul kotibi zimmasiga quyidagilar yuklanadi:

Kengash majlisining kun tartibini tayyorlash;

Kengash majlislarida ko'rib chiqilishi belgilangan masalalarning tayyorlanishi ustidan nazoratni ta'minlash;

Kengash majlislari to'g'risida Kengash a'zolari va taklif qilingan shaxslarni ogohlantirish, Kengash majlisi o'tkaziladigan sanadan kamida 3 kun oldin ularga taklifnomalar bo'yicha materiallarni oldindan yuborish;

majlis boshlanishi oldidan Kengash raisi va uning o'rribbosariga kvorum va Kengash ishini boshlash mumkinligi to'g'risida xabar berish;

majlis bayonnomalarini olib borish, rasmiylashtirish va tasdiqlash uchun taqdim etish, tavsiyalarni rasmiylashtirish va tarqatish;

Kengash raisi va Kengash o'rribbosarining Kengash ishi bilan bog'liq topshiriqlarini bajarish;

Kengashda ish yuritilishini tashkil qilish.

5-bob. Kengash a'zolarining huquqlari va majburiyatları.

19. Kengash a'zolari:

Kengashning ish rejasiga takliflar kiritish;

istiqbolli tadqiqotlarni rivojlantirish, samaradorligi past ishlarni tugatish to'g'risida takliflar kiritish;

Kengash, ishchi guruhlar majlislarida muhokama qilish uchun tayyorlangan materiallar bilan tanishish;

majlislarda muhokama qilinayotgan masalalar bo'yicha erkin fikr almashish;

Kengashning ko'pchilik ovoz bilan qabul qilingan tavsiyalariga norozilik holatlarida muhokama qilingan masala bo'yicha o'z fikrini yozma ifodalash huquqiga ega.

20. Kengash a'zolari:

Kengash majlislarida hozir bo'lish, Kengash, ishchi guruhlar ishida faol qatnashish;

tasdiqlangan ish rejasiga muvofiq Kengash topshiriqlarini bajarish;

Kengash rahbariyatining topshirig'i bo'yicha ko'rib chiqilishi mo'ljallangan materiallarga doir retsenziyalar va taqrizlar berish;

ko'rib chiqilayotgan masalalarning muhokamasi hamda xulosalar va taqrizlar berishda xolislikni saqlashga majburdirlar.

6-bob. Yakuniy qoidalar

21. Ushbu Nizom yuzasidan kelib chiqadigan nizolar qonun hujjalriga muvofiq hal etiladi.